

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 1815,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 10,4 ming kishiga yoki 0,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 604,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,3 %), qishloq aholisi soni 1210,9 ming kishini (66,7 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **10,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **14,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,7 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,0 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


## Xorazm viloyat aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)

**Tirik tug'ilganlar**  
14,5 ming bola



Vafot etganlar  
3,7 ming kishi

**Ko'chib kelganlar**  
3,4 ming kishi




Ko'chib ketganlar  
3,9 ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
10,3  
ming kishi

## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 240,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) va Urganch tumanida 191,5 ming kishini (10,5 %), aksincha eng kam aholi soni Yangibozor tumanida 84,7 ming kishi (4,7 %) va Yangiariq tumanida 112,5 ming kishini (6,2 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Urganch tumanida 1,8 %ni, Xonqa va Xiva tumanlarida 1,7 %ni, Xazorazsp tumanida 1,6%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yangiariq tuman 1,5%ni va Gurlan tumanida 1,3 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 14,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 16,7 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Xonqa (17,4 promilledan 18,4 promillega) va Urganch (16,5 promilledan 16,9 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Gurlan (17,9 promilledan 16,4 promillega) va Shovot (17,0 promilledan 15,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi, yanvar-iyun )

#### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:  
7,0 ming  
nafar

O'g'il bolalar:  
7,5 ming  
nafar

Shahar va tumanlar	2017 y	2018 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>14726</b>	<b>14548</b>	<b>98,8</b>
Urganch shahar	1232	1236	100,3
Xiva shahar	637	623	97,8
tumanlar:			
Bog'ot	1 376	1333	96,9
Gurlan	1 261	1171	92,9
Qo'shko'pir	1 146	1145	99,9
Urganch	1 529	1602	104,8
Xazorasp	2 131	2134	100,1
Xonqa	1 526	1643	107,7
Xiva	956	851	89,0
Shovot	1 355	1270	93,7
Yangiariq	810	788	97,3
Yangibozor	767	752	98,0

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 3,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 4,6 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Bog'ot (4,6 promilledan 3,5 promillega) Yangibozor (5,0 promilledan 4,1 promillega), Shovot (4,6 promilledan 3,8 promillega) va Gurlan (4,8 promilledan 4,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
2,0 ming  
kishi

**Ayollar:**  
1,7 ming  
kishi

### Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (kishi, yanvar-iyun )


Shahar va tumanlar	2017 y	2018 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>4032</b>	<b>3710</b>	<b>92,0</b>
Urganch shahar	443	411	92,8
Xiva shahar	195	219	112,3
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	357	277	77,6
Gurlan	336	292	86,9
Qo'shko'pir	320	328	102,5
Urganch	389	401	103,1
Xazorasp	539	498	92,4
Xonqa	371	361	97,3
Xiva	271	221	81,5
Shovot	364	307	84,3
Yangiariq	243	223	91,8
Yangibozor	204	172	84,3

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,1 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,5 %i o'simtalardan, 5,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,2 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,6 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 58,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 8,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 22,7 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,9 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'llim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 10,8 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 10,7 ming kishi bo'lган) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
10,8 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 9,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiariq (117,3 %), Shovot (111,0 %), Gurjan tumani (110,7 %), Yangibozor (106,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### **Nikohdan ajralishlar.**

2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Qo'shko'pir (45,7%), Yangiariq (51,1 %), Xazorasp (68,7 %), tumanlariga va Urganch shahriga (62,6 %) to'g'ri kelmoqda.



### **Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (birlik, yanvar-iyun)**



Shahar va tumanlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 yil	2018 yil	o'sish, %	2017 yil	2018 yil	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	7978	8041	100,8	700	484	69,1
Urganch shahar	624	539	86,4	139	87	62,6
Xiva shahar	317	345	108,8	15	21	140,0
tumanlar:						
Bog'ot	730	668	91,5	35	37	105,7
Gurlan	647	716	110,7	56	41	73,2
Qo'shko'pir	866	835	96,4	70	32	45,7
Urganch	780	708	90,8	95	75	78,9
Xazorasp	1 040	1015	97,6	83	57	68,7
Xonqa	777	776	99,9	45	39	86,7
Xiva	590	645	109,3	41	8	19,5
Shovot	699	776	111,0	49	40	81,6
Yangiariq	491	576	117,3	45	23	51,1
Yangibozor	417	442	106,0	27	24	88,9

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,4 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 3,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3,9	3,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4,4	3,9
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,5	-0,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Xazarasp tumani (minus 0,2 ming kishi), Qo'shko'pir tumani (minus 0,1 ming kishi), Gurilan tumani (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.